


“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 03- oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 8-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-oktabr 2026-yil

ABDURAUF FITRAT VA ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TURKISTONDAGI TA’LIM VA TARBIYA JARAYONLARINING YORITILISHI

Abdullayev Zohidjon Tolibjon O’g’li
Tarix mutaxasisligi, 2-kurs magistranti



Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston ma’naviy hayotida muhim o’rin tutgan taraqqiyparvar jadidlardan Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy faoliyati, ta’lim va tarbiya jarayonlariga ularning qarashlari, yosh avlodga nasihatlari va ularning asarlarida Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayoti tarixining yoritilishi va tarixiy manbashunosligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Ma’rifatchilik, yoshlar tarbiyasi, jadidlar, oila, axloqshunos, tarbiya, mudarris, Ota-ona.

Turkiston o’lkasi XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o’lkasi general – gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o’z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizasiyasidan chetda tutib turdik, degan so’zlari yaqqol anglatadi. Shunday bo’lsada Turkiston o’lkasida Ilm-fan va madaniyat butunlay to’xtab qolgani yuq. Ma’rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot.

Pirovard maqsad millatni, bir tomondan,ilmli-ma’rifatli qilish bo’lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg’unlashuvi natijasida o’zligini, o’z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo’lida katta ishlar qilindi.

Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr qanoatli bo’lishga undaydi[1]. XX asr

boshlarida o’lkadagi maktablarni isloh qilib yangi usul maktablarini ochish, zamonaviy bilimlarni o’qitish, Turkistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqish kabi ezgu g’oyalar tarafdorlari bo’lgan taraqqiyparvar jadidlar yetishib chiqdi. Ulardan biri Abdurauf Fitrat edi. Abdurauf Fitrat ma’naviy va ma’rifiy sohaga oid ko’plab asarlar yozdi. Ularda o’lkadagi jarayonlar, yoshlar tarbiyasi, istiqlol g’oyalari va mamlakat taraqqiyotiga doir o’zining qarashlari va bazi yechimlarini keltirib o’tadi. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirda, Abdurauf Fitratning ushbu fikrlariga har birimiz ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan yosh avlod amal qilishlarini juda istardik: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikka yuz tutishi, e’tibordan qolib, o’zgalarga tobe, qul va asir bo’lishi ularning o’z ota-onalaridan yoshlikda olgan tarbiyalariga bog’liq”[2]. Bu fikrlar yuz yillar oldin aytilgan bo’lsa ham hali-hamon o’z ahamiyatini zarracha yo’qotmagan. Fitratning o’zi ham yoshligidan puxta ta’lim va tarbiya oladi. 17 yoshidan avvaliga diniy, so’ngra badiiy ijod va ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanadi.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” (1914) kitobi a’lohida o’rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, “Oila” o’zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda ham tanqidiy ruh, ham da’vat ruhi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod ko’rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a’mol va erk o’chog’i bo’lmog’i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da’vat etadi. Har jihatdan sog’lom bo’lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko’tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog’lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol -aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...” – deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, muallif kitobning birinchi qismini, ma’lum ma’noda me’yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo’lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy - maishiy, gigienik-sa’lomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo’lgan holatlarning axloqiy asoslari to’g’risida

ham to’xtalib o’tadi.

Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag’ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an’anaviy yo’nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg’unligida haqiqiy inson kamol topadi deb hisoblaydi. Kitobning bu qismida Fitrat, ma’lum ma’noda, o’ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o’rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, a’loqa mayli, boshqalarga mehr - muhabbat mayli va h. k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a’zosi sifatida, ham ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat - nafs, ayniqsa, iroda masalasiga a’lohida to’xtalib o’tadi. “Iroda va ixtiyor” sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da’vat etadi, iroda tarbiyasining to’rt banddan iborat qoida - bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota - onaning zo’ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta’kidlaydi. “Ota – onalarning haq – huquqlari” bobida ham balog’atga yetgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, Fitratning “Oila” kitobida amaliy axloq bilan axloq nazariyasi muammolari uyg’unlashib ketgan. Lekin unda pedagogik – didaktik uslub emas, jangovor chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axloqiylik, erk va erksevarlik bilan mustahkam bog’liq; Turkiston va turkistonlikni ozod ko’rish, ya’ni milliy mustaqillik mafkurasi kitobning ruhiga singdirib yuborilgan. Uni o’qigan kishi na faqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima - yu, unga qanday qilib erishish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir – jadid Abdurauf Fitratning “Oila” asari Turkiston milliy uyg’onishida benihoya katta rol o’ynaydi. Ayni paytda, u hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan ajoyib axloqiy - ma’rifiy risola sifatida a’lohida e’tiborga molik[3].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloq- odob egasi bo’lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya’ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo’lida ekani hammaga ayon bo’lib qoladi. Shu bois ilg’or, ziyoli ayollar na faqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy – tarbiyaviy risolalar yozish yo’li bilan ham bo’lajak ziyoli onalarni voyaga

etkazishga hissa qo’shadilar. Shu jihatdan Olimat ul - Banotning Sankt - Peterburgda 1898-1899-yillarda ikki marta nashr etilgan “Muosharat odobi” (Turmush odobi) asari o’z vaqtida katta ahamiyatga ega bo’lgan. “Agar hotun o’qigan bo’lsa, o’zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak – shubhasiz biladi. Bolalarini esa go’zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo’ladi va nihoyat Alloh Taolaning amriga muvofiq hayot kechiradi”, – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o’rni, oilaviy vazifalari, er-xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikoh va muhabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning ham uy egalariga o’xshash inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko’rish lozimligi ta’kidlanadi, turmushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi.

Turkiston ma’rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta’limshunos, pedagog va axloqqshunos Abdulla Avloniydir (1887 – 1934). Uning XX asar boshlarida Turkistonda mashhur bo’lgan “Turkiy guliston yohud axloq” (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai – nazaridan yondoshishi, ko’pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning “Qarolar falsafasi” risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy – falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko’proq tarif berish, ularni sharhlash yo’li bilan yondoshiladi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarida an’anaviy – falsafiy yondoshuv bo’lmish antropologik nuqtai – nazar bo’rtib ko’zga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot ob’yekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavhumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o’z oldiga niyat qilib qo’ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o’rtaga tashlanadi.

Faylasuf pedagog, avva’lo, millatni tarbiyalashni o’z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to’xtaladi: otalar – to’ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o’zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo’lgan, mudarrislar esa – darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo’lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta’lim–tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga

intilayotgan ziyolilar qo’lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u er – bu erda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg’itish ekanini, ochiq bo’lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o’tadi: “... hukumat hammaning otasidir. O’z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatimiz o’gay bo’lsa ham, har erda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o’qitur.” Avloniy ana shu “o’gay tarbiyadan” ko’ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o’z davrini “Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uni bu boradagi qarashlari hanuz o’z kuchini yo’qotganmaganligini, tarbiya – hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Prezident Islom Karimov mashhur nutqlaridan birida (1995-yil 23-fevral) Avloniydan mana bunday deb ko’chirma keltiradi: “Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo ha’lokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”[4]. Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o’rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga bo’ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga a’lolhida urg’u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi” tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf – pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an’anaviy bo’lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida a’lohida to’xtaladi. Vatanni suymoq lozim bo’lsa, uning yo’lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. «Biz turkistonliklar o’z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho’llarini, eskimoslar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o’z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”. Vijdon esa Avloniy nazdida, inson niyatlari va qilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo axloqiy ko’zgudir.

Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok va zako singari o’sha davrlarda hali kup quloq o’rganmagan fazilatlarni ham a’lohida e’tibor bilan nazariy – amaliy tahlildan o’tkazadi, o’quvchiga iloji boricha qisqa va lo’nda tarzda taqdim etishga intiladAbdulla Avlolniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “yomon xulqlar” ga

illatlar tahliliga katta o’rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to’siq bo’ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: “Jaholat insoniyatning eng zo’r dushmani va yomon xulqlarning boshlig’idir”. Avloniy g’azab, shahvat, hasad, kizb, tama’ singari illatlarga ham atroflicha ta’rif beradi[5].

Shunisi diqqatga sazovorki, Abdulla Avloniy axloqshunoslik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki ham falsafiy, ham badiiy jihatdan talqinini beradi. Chunonchi, u muayyan axloqshunoslik tushunchasi yoki axloqiy me’yorning sodda, lo’nda tarifini taqdim etar ekan, ba’zi hollarda Suqrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari hakimlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa, goho ularni nazmiy tizmalar bilan o’quvchiga etkazishga harakat qiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” risolasi XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida eng salmoqli o’rinni egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammoalirini falsafiy va pedagogik yondoshuv orqali hal etishga bag’ishlangan yirik asardir.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari kabi po’panak bosib, biljirab ketgan o’rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momogul durak bo’lib, millat va vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo’yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag’ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo’lib, ona Turkiston ko’ksidagi ma’orif, matbuot va teatr nihollariga hayot baxsh etdi[6]. Bu g’oyalarning asosida milliy uyg’onish, milliy mustaqillik uchun kurash maqsadi yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini millat va vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashgacha bo’lgan qizg’in va hayajonli jarayon tashkil etadi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Millatni o’z boshiga yog’ilgan har bir ofatni taqdir deb tabir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko’tardi. Xususan, jadidlarimiz millatni yashamog’i, taraqqiy topmog’i uchun, birinchi navbatda ozod, mustaqil bo’lmog’i lozimligini anglab yetdilar va xalqni uyg’otishga alohida e’tibor berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – b.171

2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Nashrga tayyorlovchilar: O. Salimov, Q. Quronboyev, M. Bermurodov, L. Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – b.156

3. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat.Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – b.144

4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. 2-nashr. Toshkent: Ma’navyat, 2000. – b.112

5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Zabarjad media, 2023. – b.128

6. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – b.398

7. Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – b.156

